



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

O‘ZBEKISTONDA KOREYS TILINI
O‘RGANUVCHILAR SONINING OSHISHIGA TA’SIR
QILUVCHI OMILLAR

Shahrizoda Sayfiyeva Bekmurod qizi

shahrizodasayfiyeva045@gmail.com

O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti

Sharq filalogiyasi fakulteti, 1-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda koreys tiliga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi va bunga ta’sir qiluvchi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot koreys tilining ommaviylashuviga sabab bo‘luvchi asosiy omillar – Janubiy Koreyaning iqtisodiy aloqalari, madaniy ta’siri (K-pop, K-dramalar, filmlar), ta’lim grantlari va ish imkoniyatlari kabi jihatlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, o‘quvchilarning koreys tilini o‘rganishdagi motivatsiyasi, duch kelayotgan qiyinchiliklari va ushbu tilni o‘rganishga ta’sir qiluvchi omillar bo‘yicha statistik ma’lumotlar keltiriladi. Shu bilan birga O‘zbekiston va Koreya madaniy aloqalarini yanada yaxshilashga qaratilgan ishlarning tahlili va shunga qo‘shimcha tarzda uni yaxshilash uchun fikrlar mulohazalar beriladi.

Kalit so‘zlar: Koreys tili, O‘zbekiston, til o‘rganish, K-pop, koreys madaniyati, xalqaro hamkorlik, ta’lim, grantlar, til kurslari

Аннотация: В данной статье анализируется растущий интерес к корейскому языку в Узбекистане и факторы, влияющие на него. Исследование охватывает такие аспекты, как основные факторы, способствующие популяризации корейского языка – экономические связи Южной Кореи, культурное влияние (К-поп, К-драмы, фильмы), гранты на образование и возможности трудоустройства. В нем также приводится статистика мотивации



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

учащихся к изучению корейского языка, трудности, с которыми они сталкиваются, и факторы, влияющие на изучение этого языка. В то же время будет дан анализ работы, направленной на дальнейшее улучшение культурных связей Узбекистана и Кореи, а также отзывы о том, как ее улучшить.

Ключевые слова: Корейский язык, Узбекистан, изучение языка, К-поп, корейская культура, международное сотрудничество, образование, гранты, языковые курсы.

Abstract: This article analyzes the growing interest in the Korean language in Uzbekistan and the factors influencing it. The study covers such aspects as the main factors contributing to the popularization of the Korean language – South Korea's economic ties, cultural influence (K-pop, K-dramas, films), educational grants and employment opportunities. It also provides statistics on students' motivation to learn Korean, the difficulties they face, and the factors that influence learning the language. At the same time, an analysis of the work aimed at further improving cultural ties between Uzbekistan and Korea will be given, as well as feedback on how to improve it.

Keywords: Korean language, Uzbekistan, language learning, K-pop, Korean culture, international cooperation, education, grants, language courses.

Bugungi kunda bir nechta xorijiy tilni o'rganish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chet tilini bilish ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini ochishdan tashqari, odamlar bilan haqiqiy aloqa o'rnatishga va turli madaniyatlar, joylar va turmush tarzi haqida ko'proq bilishga yordam beradi. Bu borada ko'plab olimlar o'z munosabatlarini bildirishgan. Mana shunday olimlardan biri, amerikalik tilshunos



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT"
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

Edvard Sapir tilning inson tafakkuri va madaniyatiga ta'siri haqida shunday degan edi: "Til – bu inson tafakkuri va madaniyatini shakllantiruvchi kuchli omildir. Har bir til o'ziga xos dunyoqarashni ifodalaydi va shu tilda so'zlashuvchilar ongiga ta'sir ko'rsatadi." Uning fikricha, til nafaqat muloqot vositasi, balki inson dunyoqarashi va fikrlash tarzini ham shakllantiradi. Shu sababli, har bir til o'zining noyob madaniy va ijtimoiy xususiyatini aks etadi. Buning yaqqol misoli sifatida so'nggi yillarda mamlakatimizda nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda koreys tiliga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada oshdi. Bunga Janubiy Koreyaning iqtisodiyotida tutgan o'рни, madaniy mahsulotlarining (K-pop, K-dramalar) asosan yoshlar orasida keng ommaviylashuvi, ta'lim va ish imkoniyatlari kabi bir qancha omillar sabab bo'lmoqda.

Janubiy Koreyaning global iqtisodiyotga ta'siri shundaki, Samsung, Hyundai, LG, Lotte kabi yirik kompaniyalarning jahon bozoridagi muvaffaqiyatidan ham ko'rish mumkin. 1997-yil sentabr oyida Venchur biznesini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus qonun qabul qilingandan so'ng to'rtta eng yirik konlomeratlar- Samsung, Hyundai, LG, va SK- va boshqalar o'z faoliyatni boshladi. 2004- yilga kelib fan va texnologiyani rivojlantirishga jami investitsiyalar 19 milliard dollar yetdi va bu mamlakat yalpi ichgi mahsulotining 2,85 foizini tashkil etdi.

Shu bilan birga Samsung, Hyundai, LG, Lotte kabi kompaniyalar Koreyaning iqtisodiy qudratini namoyish etadi va global bozorlar orqali koreys tilining tarqalishiga ta'sir ko'rsatadi. Ular faqat texnologiya yoki sanoat sohalarida emas, balki madaniy almashuv va til o'rganishda ham muhim rol o'ynaydi. Ularning muvaffaqiyati Koreya madaniyatiga global e'tibor qaratmoqda. Misol sifatida K-pop musiqalarining yoshlar o'rtasida keng targib qilinishi tilni o'rganishga bolgan qiziqishni oshirishning yana bir yo'li. Qo'shimcha tarzda shunday deyish mumkinki,



SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025

K-popning global ta'siri orqali Koreyaning "Hallyu" (Koreya to'liqini) madaniyati tarqalmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi K-pop o'zi nima?

K-pop — (inglizcha Korean Pop) Janubiy Koreya madaniyatining bir qismi sifatida Janubiy Koreyada paydo bo'lgan mashhur musiqa shakli. U an'anaviy koreys musiqasi ildizlariga qo'shimcha ravishda pop, hip-hop, R&B, eksperimental, rok, jaz, gospel, reggi, elektron raqs, folklor, country, disko va klassika kabi dunyoning turli uslublari va janrlarini o'z ichiga oladi. K-pop janri 1990-yillarda shakllana boshlagan bo'lib, Seo Taiji and Boys guruhi 1992-yilda Janubiy Koreya musiqiy sahnasini o'zgartirgan. Ularning musiqasi G'arb uslubidagi pop va hip-hop elementlarini Koreya an'anaviy musiqasi bilan uyg'unlashtirgan edi. Koreya san'ati va madaniyati dunyoning turli burchaklarida faol ravishda qabul qilinmoqda. 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlarida ko'plab guruhlar mashhurlikka erishdi. 2000-yillarning o'rtalaridan boshlab, K-pop xalqaro sahnada tanila boshladi. 2010-yillarga kelib esa BIGBANG, Girls' Generation, EXO, BTS, BLACKPINK kabi guruhlar orqali global fenomenga aylandi. Misol uchun, **BTS** va **BLACKPINK** kabi guruhlar global miqyosda rekordlar o'rnatmoqda va Koreya madaniyatini jahon bo'ylab targ'ib qilmoqda. Koreya iqtisodiyotiga K-popning ta'siri juda katta. "Hallyu" (Koreya to'liqini) orqali K-pop, Koreyaning madaniy eksportini 2021-yilda 12,3 milliard dollarga etkazdi. Bu nafaqat musiqani, balki modani, kosmetikani, televizion seriallarni va boshqa madaniy mahsulotlarni ham o'z ichiga oladi. Aynan mana shunday omillar koreys tili organishga bo'lgan qiziqishni yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Koreya Respublikasi O'zbekistonning mustaqilligini birinchilardan bo'lib, ya'ni 1991-yilning oxirlarida tan olgan, diplomatik aloqalar 1992-yil 29-yanvarda o'rnatilgan. O'tgan 30 yillik davr mobaynida har ikki tomon davlat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi 17 ta uchrashuv o'tkazilgan. Ushbu uchrashuvlarning har birida tomonlar siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

rivojlantirish yuzasidan muhim ahamiyatga ega boʻlgan kelishuvlarga erishganlar. Mamlakatimiz rahbari Islom Karimovning 1992-1995-1999-yillarda Koreya Respublikasiga va Koreya Respublikasi prezidentining 1994-yilda Oʻzbekistonga rasmiy tashriflari chogʻida imzolangan hujjatlar oʻzaro hamkorlikning huquqiy poydevorini yaratdi. Bir necha yillar davomida nafaqat ikki mamlakat rahbarlari balki siyosatshunoslar ham koʻrishib turishadi. Masalan, Koreya Milliy assambleyasi spikeri Pak Byon Sok 2021-yil 5-aprel kuni rasmiy tashrif bilan Oʻzbekistonga keldi. Ushbu tashrifda Senat raisi Tanzila Norboyeva va Qonunchilik palatasi spikeri Nurdin Ismoilovning Koreya Milliy assambleyasi spikeri Koreya Pak Byon Sok bilan uchrashuvlarini oʻtkazilgan. 1999-yilda oʻzaro tovar aylanmasi hajmi salkam 526,8 mln. AQSH dollariga yetdi. Koreya Respublikasi Oʻzbekistondan paxta tolasi, ip gazlama, kalava ip, elektr asbob-uskuna, xom teri, ipak, kimyoviy oʻgʻit olib, Oʻzbekistonga transport vositalari, elektr va mexanik jihozlar, qora metall, kauchuk va rezina mahsulotlari, boʻyoqlar, turli xil jihoz va apparatlar, toʻqimachilik mahsulotlari yuboradi. Oʻzbekistonda koreys sarmoyasi ishtirokidagi 80 ga yaqin korxona boʻlib, ular transport, elektronika, telekommunikatsiya, aloqa, toʻqimachilik kabi sohalarga mansub. „OʻzDEU avto“, „OʻzDEUelektroniks“, „Kabul-Oʻzbek kompani LTD“, „OʻzSamsoʻngelektroniks“ kabi qoʻshma korxonalar shu jumlagi kiradi. Aynan mana shunday korxonalarda faoliyat yuritishni maqsad qilgan insonlar avvalo koreys tilini boshlangʻich darajada boʻlsa ham bilish talab etiladi. Yana bir tilni oʻrganishga boʻlgan sabablaridan biri bu katta maosh hisoblanadi. Yetkazib berish xizmati (Pedal)

Oʻrtacha maosh: Yetkazib beruvchilar, ayniqsa, oziq-ovqat va onlayn buyurtmalar bilan shugʻullanuvchi xodimlar, kunlik daromad sifatida 150,000 von (taxminan 110-115 dollar) dan 300,000 von (220-230 dollar) gacha olishi mumkin. Ish haqi xodimning ish soatlari va tajribasiga bogʻliq. Soatiga hisoblaganda oʻrtacha



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

20,000 von (taxminan 15-16 dollar) atrofida. Ko‘p ishlash va kechki smenalar qo‘shimcha daromad keltiradi. Sharoitlar: Yetkazib berish xizmati odatda faol va tezkor mehnat talab etadi. Ishchilar ko‘pincha mototsikl yoki avtomobillar yordamida buyurtmalarni yetkazadilar, bu esa kechki smenalarda va katta buyurtmalar paytida yaxshi daromad keltirishi mumkin. Oz miqdorda bo‘lsada koreys tilida gaplasha olish talab qilinadi. Aynan mana shuning uchun ham tilni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlar tobora o‘tib, o‘quvmarkazlarning tashkil qilinishiga sabab bo‘lmoqda.

XULOSA

Hozirgi kunda koreys tiliga bo‘lgan qiziqish juda ortib bormoqda. Bu tilni o‘rganishga bir nechta asosiy sabablar mavjud. Eng avvalo, Janubiy Koreya madaniyati butun dunyoda mashhur bo‘lib bormoqda. Masalan, koreys seriallari (doramalari), musiqasi (K-pop), filmlari va oshxonasi yoshlar orasida katta e‘tibor qozonmoqda. Shuning uchun ko‘plab yoshlar koreys tilini o‘rganib, sevimli san’atkorlari yoki seriallarini tarjimasiz tushunishni istashadi.

Bundan tashqari, ta’lim va ish imkoniyatlari ham muhim sabab hisoblanadi. Janubiy Koreyada xorijiy talabalar uchun keng imkoniyatlar mavjud. Ko‘plab grant dasturlari, zamonaviy universitetlar va xalqaro tan olinadigan diplomlar bu tilni o‘rganishga undaydi. Shuningdek, Koreyada ishlash yoki o‘z biznesini yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘lganlar uchun koreys tilini bilish katta afzallik hisoblanadi. Yana bir muhim sabab – bu shaxsiy rivojlanish. Yangi til o‘rganish inson tafakkurini kengaytiradi, xotira va diqqatni oshiradi. Til o‘rganish orqali inson boshqa millat madaniyatini tushunadi, o‘z qarashlarini boyitadi. Xulosa qilib aytganda, koreys tilini o‘rganish madaniy zavq, ta’lim, ish va shaxsiy o‘sish kabi ko‘plab ijobiy tomonlarga ega. Shu sababli har yili minglab insonlar bu tilni o‘rganishga qaror qilmoqda.



**SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE “THE
FUTURE STARTS WITH US: TOWARDS THINKING,
TECHNOLOGY AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT”
VOLUME 1. ISSUE 1. 2025**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Language: An Introduction to the Study of Speech" (1921)
2. „Корея Миллий ассамблеяси спикери Ўзбекистонга келди — фото“. Bugun.uz. 2021-yil 12-avgustda asl nusxadan arxivlangan. Qaraldi: 2021-yil 5-aprel.
3. Hartong, Jan Laurens. Musical terms worldwide: a companion for the musical explorer. Semar Publishers, 2006 — 15-bet.
4. Laurie, Timothy (2016), „Toward a Gendered Aesthetics of K-Pop“, Global Glam and Popular Music : Style and Spectacle from the 1970s to the 2000s: 214–231
5. Obid Hakimov “The Korea Post” jurnali. O‘zbekiston Koreya iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. <https://review.uz/post/uzbekistan-koreya-perspektiv-ekonomicheskogo>
6. <https://uzbekjamiyati.wordpress.com/2018/03/18/koreyada-ish-haqqi-maosh-oylik/>